

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMYIY-TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

---

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
ILMYIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**RAJABOV BOBIR BOZOROVICH**

**KENG QAMROVLI CHIZEL-KULTIVATORGA DALA YUZASINI  
TEKISLAYDIGAN VA UNDA MAYIN TUPROQ QATLAMINI HOSIL  
QILADIGAN MOSLAMA ISHLAB CHIQISH VA PARAMETRLARINI  
ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Gulbahor – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

**Rajabov Bobir Bozorovich**

Keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama ishlab chiqish va parametrlarini asoslash..... 3

**Ражабов Бобир Бозорович**

Разработка и обоснование параметров приспособления к широкозахватному чизель-культиватору для выравнивания поверхности поля и образования на ней мелкокомковатого слоя почвы ..... 19

**Rajabov Bobir Bozorovich**

Development and justification of adaptation parameters for a wide-range chisel cultivator for leveling the field surface and forming a fine cloddy layer of soil on it..... 35

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 39

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**RAJABOV BOBIR BOZOROVICH**

**KENG QAMROVLI CHIZEL-KULTIVATORGA DALA YUZASINI  
TEKISLAYDIGAN VA UNDA MAYIN TUPROQ QATLAMINI HOSIL  
QILADIGAN MOSLAMA ISHLAB CHIQISH VA PARAMETRLARINI  
ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo'jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo'jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Gulbahor – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PHD/T4502 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasi [www.qxmiti.uz](http://www.qxmiti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**To'xtaqo'ziyev Abdusalim**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Imomqulov Qutbiddin Boqijonovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Naurizbayev Alliyar Oserbayevich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Qishloq xo'jaligi texnikasi va  
texnologiyalarini sertifikatlash va sinash  
markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «03» yanvar soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: [qabulxona@qxmiti.uz](mailto:qabulxona@qxmiti.uz)).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (493 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 110801, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99870) 601-07-04, faks: (+99870) 601-07-04, e-mail: [qabulxona@qxmiti.uz](mailto:qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «20» dekabr kuni tarqatildi.  
(2024 yil «20» 12 dagi № 51 raqamli reestr bayonnomasi).



**A.A. Ibragimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
tashkiloti, texnika fanlari doktori, professor

**B.P. Artikbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kengashi, t.f.n., kat.i.x.

**R.R. Xudaykuliye**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.n., kat.i.x.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yerlarga ekinlar urug'ini ekishdan oldin ishlov beradigan ish unumi va sifati yuqori bo'lgan energiya-resurstejamkor mashinalarni ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinni egallamoqda. "Bugungi kunda dunyo bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini ekish uchun har yili 1,8 mlrd. gektar maydonga ishlov berilishini hisobga olsak"<sup>1</sup>, yerlarga ekin ekishdan oldin ishlov berishda qo'llaniladigan mashinalar yuqori ish sifati va unumiga ega hamda energiya-resurstejamkor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shularni nazarda tutgan holda yerlarga ekin ekishdan oldin ishlov berishda qo'llaniladigan mashinalarni ish sifati va unumini oshirish hamda energiya-resurstejamkorlikni ta'minlash yo'nalishida takomillashtirish, shu jumladan yerlarni ekishga tayyorlashda daladan bir o'tishda yerlarga ekish oldidan ishlov berish jarayonlarini birlashtirib bajaradigan mashinalarni ishlab chiqish va qo'llash muhim masala hisoblanadi.

Jahonda qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini ekishdan oldin dalalar yuzasini ekishga tayyorlashning energiya va resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan mashinalarning yangi namunalarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirishning ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqish hamda ish jarayonida ularning energiya sarfini kamaytirish va resurstejamkorlikni ta'minlash borasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, bir o'tishda yerlarni ekishga tayyorlash bo'yicha barcha agrotexnik tadbirlarni qo'shib bajaradigan tuproqqa ishlov berish mashinalarini ishlab chiqish, ular ish organlarining kam energiya sarflagan holda talablar darajasidagi ish sifatini ta'minlaydigan parametrlarini asoslash bo'yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurstejamkorlikni ta'minlash, qishloq xo'jalik ekinlarini zamonaviy texnologiyalar asosida yetishtirish hamda yuqori samara beradigan qishloq xo'jalik mashina va texnika vositalarini ishlab chiqish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida, jumladan "...qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash"<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Bu vazifalarni bajarishda, shu jumladan yerlarni ekishga tayyorlashda dala yuzasini tekislash va unda mayin tuproq qatlamini hosil qilish uchun mavjud keng qamrovli chizel-kultivatorga moslama ishlab chiqish, parametrlarini asoslash, uni tuproq bilan o'zaro ta'sirlashtirish jarayonida energiya

---

<sup>1</sup><https://www.fao.org/3/i1688r/i1688r03.pdf>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni.

sarfini kamaytirish hamda resurstejamkorlikni ta'minlash bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish muhim o'rin tutadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853 son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tog'risida"gi Farmonlari, 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4410 son "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2020 yil 11 maydagi PQ-4709-son "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda samarali xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan mashinalar tarkibida dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan tekislagichlar hamda g'altakmolalar ko'rinishidagi turli moslamalarni ishlab chiqish va ularning parametrlarini tadqiq etish bilan xorijda A.F.Juk, Mongold Diter, A.A.Vilde, N.K.Mazitov, Yu.I.Mityashin, N.V.Chaychits, A.V.Shubin, G.Schnitkey, V.P.Marmalyukov, Yu.I.Kuznetsov va boshqalar shug'illanishgan.

Ushbu yo'nalishda O'zbekistonda M.A.Axmedjanov, V.N.Sokolov, S.K.Qo'chqorov, M.M.Xalilov, Sh.P.Sharipov, Yo.M.Turdiyeva, I.A.Inoyatov, I.T.Ergashev, O'.P.Boboyev, S.Aminov, I.Z.Nosirov, A.To'xta'qo'ziyev, A.O.Xadji-Muradov, A.D.Nuriddinov, D.K.Muqimova, M.T.Mamarasulova, G.Q.Eshmatova va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy izlanishlar natijalari asosida ishlab chiqilgan mashinalar va ish organlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yerlarni ekishga tayyorlashda keng tadbiiq etilmoqda. Lekin keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama (keyingi o'rinlarda moslama) ishlab chiqish, uning turi va parametrlarini asoslash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari avvallari yetarli darajada olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur ish Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining (09/2023.1.1) "Keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasida mayin qatlam hosil qiladigan moslama ishlab chiqish va parametrlarini asoslash" (2022-2023 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama ishlab chiqish hamda uning parametrlarini asoslash yo'li bilan yerlarni ekishga

tayyorlashda ish sifatini oshirish, yonilg'i, mehnat va boshqa xarajatlar sarfini kamaytirishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari.** Qo'yilgan maqsadga erishish uchun tadqiqot vazifalariga quyidagi masalalarni o'rganish kiritildi:

yerlarga ekish oldidan ishlov berish mashinalari tarkibida dala yuzasini tekislash va unda mayin tuproq qatlamini hosil qilish uchun qo'llaniladigan moslamalar va ular bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish va ulardan keng qamrovli chizel-kultivatorlarda qo'llash uchun maqbulini tanlab olish;

keng qamrovli chizel-kultivatorga o'rnatiladigan moslamaning ishlash sharoitini o'rganish;

keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslamaning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'tkazish;

o'tkazilgan tadqiqotlar asosida tavsiya etilayotgan parametrlarga ega bo'lgan moslamani ishlab chiqish va u bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivatorning sinovlarini o'tkazish;

tavsiya etilayotgan parametrlarga ega bo'lgan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivatorni qo'llashdan olinadigan iqtisodiy samarani aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti.** Keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama va uning tuproq bilan ta'sirlashish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti** keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslamaning tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalovchi matematik modellar va analitik ifodalar, moslamaning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini uning parametrlari va harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari.

**Tadqiqotning usullari.** Dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama parametrlarini asoslashda oliy matematika, nazariy mexanika, matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish hamda tenzometriya usullari va mavjud me'yoriy hujjatlarda (O'z DSt 3412:2019 "Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari" va O'z DSt 3193:2017 "Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli") keltirilgan usullardan foydalanilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivatorning iqtisodiy samarasi РД Уз 63.03-98 "Испытания сельскохозяйственной техники. Методика расчета экономической эффективности испытываемой сельскохозяйственной техники" asosida aniqlangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

keng qamrovli chizel-kultivatorga moslamaning konstruktiv sxemasi dala yuzasi oldin tekislanishi va keyin unda mayin tuproq qatlami hosil qilinishini hisobga olinib texnologik jarayon sifatli va kam energiya sarflab bajarilishi shartidan ishlab chiqilgan;

moslama parametrlarining o'zgarish chegaralari uning ishchi qismlarini tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalovchi analitik bog'lanishlar asosida tuproqning fizik-mexanik xossalari va agregat harakat tezligini hisobga olgan holda aniqlangan;

moslamaning parametrlari tuproqning hajmiy ezilish koeffitsienti, tashqi va ichki ishqalanish burchaklari, uning uvalanish sifati va dala yuzasini tekislanish darajasi belgilangan talablarga mos kelishi hamda uning tortishga qarshiligi esa kam bo'lishi hisobga olinib aniqlangan;

moslama tekislagichining agrotexnik va energetik ko'rsatkichlarini baholovchi regressiya tenglamalarini birgalikda yechish orqali uning qamrash kengligi, balandligi va ochilish burchagining hamda harakat tezligining maqbul qiymatlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama ishlab chiqilgan va uning parametrlari asoslangan;

asoslangan parametrlarga ega bo'lgan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivator qo'llanilganda yerlarni ekishga tayyorlash sifati oshishiga hamda foydalanish xarajatlarini kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usullar va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, keng qamrovli chizel-kultivator uchun ishlab chiqilgan moslamaning parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivator dala sinovlarining ijobiy natijalari va uni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslamaning sifat hamda energetik ko'rsatkichlarini uning parametrlariga bog'liqligini ifodalovchi analitik bog'lanishlar olinganligi, ulardan boshqa shunga o'xshash moslama va ish organlarini ishlab chiqish hamda parametrlarini asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishlab chiqilgan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivator qo'llanilganda ish sifatining yaxshilanishi, energiya-resurstejamkorlikning ta'minlanishi, foydalanishdagi sarf-xarajatlar hamda mehnat sarfini kamayishi olingan natijalarning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivatorga dastlabki talablar va texnik topshiriq ishlab chiqilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 24 iyundagi 05/04-04-284-son ma'lumotnomasi). Natijada keng qamrovli chizel-kultivatorga asoslangan parametrlarga ega bo'lgan

dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

ishlab chiqilgan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivatorning tajriba nusxasi Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi "BARAKALI ZAMIN AGRO" MChJ va Quyi Chirchiq tumanidagi "TCT AGRO CLUSTER" MChJ hamda "OQ TEPALIK SHAVKAT" fermer xo'jaliklariga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 24 iyundagi 05/04-04-284-son ma'lumotnomasi). Natijada yerlarni ekishga tayyorlashda umumiy xarajatlar 33 foizga, mehnat sarfi esa 77 foizga kamaygan;

dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslamaning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq va chizmalar) "BMKB-Agromash" AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 24 iyundagi 05/04-04-284-son ma'lumotnomasi). Natijada keng qamrovli chizel-kultivatorga asoslangan parametrlarga ega bo'lgan dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ilmiy-tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi hamda ilmiy-tadqiqot ishining dissertatsiya amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Vazifaning qo'yilishi va tadqiqot ishining maqsadi**" deb nomlangan birinchi bobida Respublikamiz sharoitida yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan texnologiyalar va texnika vositalari tahlil etilgan, yerlarni ekishga tayyorlashda biryo'la tuproqni yumshatish va dala yuzasini tekislash hamda unda mayin tuproq qatlamini hosil qilishning ahamiyati va unga qo'yiladigan agrotexnika talablari keltirilgan, yerlarga ekish oldidan ishlov berish mashinalari tarkibida qo'llaniladigan dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil

qiladigan moslamalar va mavzu bo'yicha ilgari bajarilgan tadqiqotlarning natijalari tahlil etilgan hamda keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslamaning ishlash sharoitini o'rganish natijalari keltirilgan, o'tkaziladigan tadqiqotlarning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Ma'lumki, hozirgi davrda Respublikamizda yerlarga asosiy va ekish oldidan ishlov berishda yuqori quvvatli g'ildirakli traktorlar keng qo'llanilmoqda. Ular bilan ishlatish uchun QXMITI da keng qamrovli chizel-kultivator ishlab chiqilgan. Ammo bu chizel-kultivator faqat yumshatkich va o'qyoysimon panjalar bilan jihozlangan. Shu bois ish jarayonida u tuproqni faqat yumshatadi va dala yuzasini tekislash hamda unda mayin tuproq qatlamini hosil qilish uchun qo'shimcha boronalash va molalash tadbirlari amalga oshiriladi. Bu mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni, shu jumladan yonilg'i sarfini ortishiga olib keladi. Ushbu aytilganlardan kelib chiqib mazkur ish keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash orqali yerlarni ekishga tayyorlashda ish sifatini oshirish, yonilg'i, mehnat va boshqa xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan.


O'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasidagi notekisliklarni tekislash va unda mayin tuproq qatlamini hosil qilish uchun o'rnatiladigan moslama yuzasida 9,5-10,7 cm balandlikdagi notekisliklar bo'lgan maydonda ishlaydi hamda tarkibida 2,6-4,7 foiz o'lchami 100 mm dan katta, 10,6-12,2 foiz o'lchami 100-50 mm va 83,1-86,8 foiz o'lchami 50 mm gacha bo'lgan tuproq fraksiyalari bilan o'zaro ta'sirlashadi.

Dissertatsiyaning **“Keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslamani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy tadqiqotlarning natijalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslamani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha o'tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Yerlarga ekish oldidan ishlov beradigan mashinalarda dala yuzasidagi notekisliklarni tekislash va unda mayin tuproq qatlamini hosil qilish uchun qo'llaniladigan moslamalar(ish organlari)ning o'tkazilgan tahlillari asosida keng qamrovli chizel-kultivatorga moslama tuproq suradigan plastinalardan tashkil topgan tekislagichlar va plankali g'altakmolalardan iborat etib ishlab chiqildi (1-3–rasmlar).


Tekislagichlar keng qamrovli chizel-kultivator har bir yumshatkich panjasining orqasi(izi)dan, g'altakmolalar esa uning har bir sektsiyasiga alohida o'rnatilgan.

Tekislagichlar parallelogramm mexanizmlar, g'altakmolalar esa tortqilar vositasida keng qamrovli chizel-kultivatorning ramasi bilan sharnirli bog'langan.


Ish jarayonida tekislagichlarning tuproq suradigan plastinalari keng qamrovli chizel-kultivatorning yumshatkich va o'qyoysimon panjalari ta'sirida dala yuzasida hosil bo'lgan bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishdagi notekisliklarni tekislaydi, g'altakmolalar esa tuproqni talab darajasida zichlaydi hamda dala yuzasida mayin tuproq qatlamini hosil qiladi.



1,2,3- mos ravishda chizel-kultivatorning markaziy, o'ng va chap yon seksiyalari; 4-osish qurilmasi; 5-yumshatkich panja; 6-o'qyoysimon panja; 7-gidrotsilindr; 8-tekislagich; 9-plankali g'altakmola  
**1-rasm. Moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivatorning sxemasi**



1-parallelogramm mexanizm; 2-ustun; 3, 4-o'ng va chap tuproq suradigan plastinalar  
**2-rasm. Moslama tekislagichining sxemasi**



1-asos; 2-o'q; 3-planka  
**3-rasm. Moslama plankali g'altakmolasi sxemasi**

Quyidagilar moslamaning tadqiq etiladigan parametrlari hisoblanadi (1-3-rasmlar):  $\gamma$  – tekislagich tuproq suradigan plastinasining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi, °;  $B_t$  – tekislagichning qamrash kengligi, m;  $H_t$  – tekislagich tuproq suradigan plastinalarining balandligi, m;  $D$  – g'altakmolaning diametri, m;  $Z$  – g'altakmolaga o'rnatilgan plankalar soni, dona;  $l_a$  – g'altakmolaning asoslari orasidagi masofa, m;  $l_p$  – g'altakmola plankalarining uzunligi, m;  $\beta$  – plankalarni g'altakmolaning aylanish o'qiga nisbatan o'rnatilish burchagi, °;  $h_p$  – plankalarning umumiy balandligi, m;  $h_a$  – plankalarni g'altakmolaning asoslariga kirib turgan qismining balandligi, m;  $b_p$  – plankaning qalinligi, m;  $D_a$  – g'altakmola asoslarining diametri, m;  $b_a$  – g'altakmola asoslarining qalinligi, m;  $B_{g'}$  – g'altakmolaning qamrash kengligi, m;  $l$  – tekislagich bilan g'altakmola orasidagi bo'ylama masofa, m.

**Moslama tekislagichi tuproq suradigan plastinasining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi** uning ishchi sirtiga tuproq yopishmasligi va oldida uyulmasligi shartlaridan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi:

$$\gamma = 45^\circ - \frac{\varphi_1}{2}, \quad (1)$$

bunda  $\varphi_1$  – tuproq bo'laklarining tashqi, ya'ni tuproq suradigan plastinaning ishchi sirtiga ishqalanish burchagi, °.

**Tekislagichning qamrash kengligi va balandligi** dala yuzasidagi notekisliklar to'liq tekislanishi shartidan quyidagi ifodalar bo'yicha aniqlandi:

$$B_t = M_k - 2kV \sqrt{\frac{2h_{h(max)}}{g}} \frac{\sin \gamma}{\cos \varphi_1} \cos(\gamma + \varphi_1) \quad (2)$$

ba

$$H_t \geq 0,5h_{h(max)}, \quad (3)$$

bunda  $M_k$  – keng qamrovli chizel-kultivatorning o'qyoysimon panjalari orasidagi ko'ndalang masofa, m;  $k$  – dala yuzasidagi notekisliklarning ta'sirini hisobga oladigan koeffitsient;  $V$  – tekislagichning ilgari lanma harakat tezligi, m/s;  $h_{h(max)}$  – keng qamrovli chizel-kultivatorning ish organlaridan dala yuzasida hosil bo'ladigan notekisliklarning maksimal balandligi, m.

$\varphi_1=30^\circ$ ,  $M_k=0,45$  m,  $k=2$ ,  $V=1,7-2,2$  m/s,  $h_{h(max)}=0,11$  m,  $g=9,81$  m/s<sup>2</sup>,  $\gamma=30^\circ$  qabul qilinib (1)-(3) ifodalar bo'yicha moslama tekislagichi tuproq suradigan plastinasining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi  $30^\circ$ , tekislagichning qamrash kengligi 9-16 cm oralig'ida hamda uning balandligi kamida 5,5 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

**G'altakmolaning diametri** u yo'lida uchraydigan kesaklarni bosib o'tish shartidan keltirib chiqarilgan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi:

$$D \geq \frac{[1 + \cos(\varphi_1 + \varphi_2)] d_k + 2h_0}{1 - \cos(\varphi_1 + \varphi_2)}, \quad (5)$$

bunda  $\varphi_2$  – tuproq(kesak)ning ichki, ya'ni tuproqni tuproqqa ishqalanish burchagi, °;  $d_k$  – g'altakmolaning yo'lida uchraydigan kesaklarning diametri, m;  $h_0$  – g'altakmola

plankalarining tuproqqa botish chuqurligi, m.

(5) shart bajarilganda g'altakmolaning yo'lida uchraydigan kesaklarni uning plankalari tomonidan bosib maydalanishi ta'minlanadi hamda ularni g'altakmolaning oldida uyulishi kuzatilmaydi.

**G'altakmolaga o'rnatiladigan plankalarning soni** quyidagi shart bo'yicha aniqlandi:

$$Z \geq \frac{2\pi D(1+k_c)}{D \left[ \frac{\pi - 2 \arcsin\left(1 + \frac{2h_0}{D}\right)}{1 - k_c} - 2 \cos \arcsin\left(1 + \frac{2h_0}{D}\right) \right] + 2b_p}, \quad (6)$$

bunda  $k_c$  – g'altakmolaning sirpanish koeffitsienti.

(6) shart bajarilganda g'altakmolaning plankalari tomonidan dala yuzasiga to'liq ishlov berilishi ta'minlanadi.

**G'altakmola plankalarining uzunligi va asoslarining diametri** quyidagi ifodalar bo'yicha aniqlandi:

$$l_p = \frac{l_a}{\cos \beta} \quad (7) \quad \text{va} \quad D_a = D - 2(h_p - h_a). \quad (8)$$

**G'altakmolaga beriladigan solishtirma, ya'ni uning har bir metr qamrash kengligiga to'g'ri keladigan tik yuklanish** u ish jarayonida belgilangan chuqurlikka botib ishlashi shartidan keltirib chiqarilgan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlandi:

$$Q_s = q_s(1 + K_v V^2) \left\{ h_0 b_p + b_a (R - h_p + h_a) \left[ \sqrt{2(R - h_p + h_a)(h_0 - h_p + h_a) - (h_0 - h_p + h_a)^2} - (R - h_0 + h_a) \arcsin \frac{\sqrt{2(R - h_p + h_a)(h_0 - h_p + h_a) - (h_0 - h_p + h_a)^2}}{R - h_p + h_a} \right] \frac{B_g + l_a}{B_g l_a} \right\}, \quad (9)$$

bunda  $q_s$  – tuproqning statik hajmiy ezilish koeffitsienti, N/m<sup>3</sup>;  $K_v$  – proportsionallik koeffitsienti, s<sup>2</sup>/m<sup>2</sup>.

$d_k=0,1$  m,  $h_0=0,05$  m,  $\varphi_1=30^\circ$ ,  $\varphi_2=40^\circ$ ,  $b_p=0,01$  m,  $q_s=2 \cdot 10^6$  N/m<sup>3</sup>,  $K_v=0,01$  s<sup>2</sup>/m<sup>2</sup>,  $b_a=0,006$  m,  $h_p=0,05$  m,  $h_a=0,02$  m,  $l_a=0,25$  m,  $\beta=20^\circ$  qabul qilinib, (5)-(8) ifodalar bo'yicha o'tkazilgan hisoblashlar g'altakmolaning diametri kamida 36 cm, unga o'rnatiladigan plankalar soni kamida 12 dona, ularning uzunligi 27 cm, g'altakmola asoslarining diametri 30 cm, (9) ifoda bo'yicha esa 1,7-2,2 m/s harakat tezliklarida g'altakmolaga beriladigan tik yuklanish 1,04–1,06 kN/m bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

**Tekislagich va g'altakmola orasidagi bo'ylama masofa** quyidagi ifoda

bo'yicha aniqlandi:

$$l > 0,5(B_t \operatorname{ctg} \gamma + D). \quad (10)$$

Bu ifodaga  $B_t$ ,  $\gamma$  va  $D$  ning yuqorida aniqlangan qiymatlarini qo'yib, tekislagich va g'altakmola orasidagi bo'ylama masofa kamida 32 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

**Moslamaning tortishga solishtirma qarshiligini aniqlash uchun quyidagi ifoda olindi:**

$$R_M^c = \frac{1}{M_k} \rho_0 B_t H_t \left( \frac{f' g H_t}{2 \sin \gamma} \operatorname{ctg} \mu + V^2 \sin \gamma \right) \frac{\sin(\gamma + \varphi_1)}{\cos \varphi_1} + \frac{1}{2} q_s K_p (1 + K_v V^2) h_1^2 \left( 1 - \frac{\rho_0}{\rho} \right)^2, \quad (11)$$

bunda  $\rho_0$  – tuproqning chizel-kultivator bilan ishlov berilgandan keyingi zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;  $\rho$  – tuproqning moslama tomonidan ishlov berilgandan keyingi zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;  $f'$  – tuproqning tuproqqa ishqalanish koeffitsienti;  $\mu$  – tuproqning tabiiy to'kilish burchagi,  $^\circ$ ;  $K_p$  – g'altakmola plankalarining uning tortishga qarshiligiga ta'sirini hisobga oladigan koeffitsient,  $h_1$  – chizel-kultivatorning ishlov berish chuqurligi, m.

$M_k=0,45$  m,  $\rho_0=1000$   $\text{kg/m}^3$ ,  $B_t=0,15$  m,  $H_t=0,06$  m,  $f'=0,8$ ,  $g=9,81$   $\text{m/s}^2$ ,  $\mu=30^\circ$ ,  $\gamma=30^\circ$ ,  $\varphi_1=30^\circ$ ,  $q_s=2 \cdot 10^6$   $\text{N/m}^3$ ,  $K_p=1,2$ ,  $K_v=0,01$   $\text{s}^2/\text{m}^2$ ,  $h_1=0,2$  m,  $\rho=1200$   $\text{kg/m}^3$  qabul qilib (11) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblar 1,7 – 2,2 m/s harakat tezligida ishlab chiqilgan moslamaning har bir metr qamrash kengligiga to'g'ri keladigan tortishga qarshiligi 1,88 – 2,10 kN ni tashkil etishini ko'rsatdi.


Dissertatsiyaning “**Moslama tekislagichining parametrlarini uning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazish va olingan natijalar asosida ularning maqbul qiymatlarini asoslash**” deb nomlangan uchinchi bobida moslamaning tekislagichi bo'yicha bajarilgan nazariy tadqiqotlarning natijalarini tekshirib ko'rish hamda uning parametrlarining talab darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan qiymatlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan bir va ko'p omilli tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Tajribaviy tadqiqotlar institut tajriba xo'jaligida yerlarni chigit va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini ekishga tayyorlash davrida o'tkazildi.

Tajribalarni o'tkazishda baholash mezoni sifatida tekislagichlar bilan ishlov berilgan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi, tuproqning uvalanish sifati hamda tekislagichning tortishga qarshiligi olindi.

4-rasmda o'tkazilgan bir omilli tajribalarning natijalari keltirilgan. Ular bo'yicha quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

moslama tekislagichining qamrash kengligi ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi botiq parabola



1- 6 km/h harakat tezligida; 2- 8 km/h harakat tezligida

**4-rasm. Dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi  $\pm\sigma$  (a), tuproqning uvalanish darajasi  $\Phi_{(<25>}$  (b) va tekislagichning tortishga qarshiligi  $R$  (v) ni uning qamrash kengligi ( $B_r$ ), balandligi ( $H_t$ ) va tuproq suradigan plastinasining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi ( $\gamma$ ) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari**

qonuniyati bo'yicha o'zgargan, ya'ni bu ko'rsatkich oldin kamaygan, keyin ortgan, tuproqning uvalanish darajasi va tortishga qarshilik qavariq parabola qonuniyati bo'yicha ortgan, ya'ni ularning ortish jadalligi tekislagichning qamrash kengligi ortishi bilan sekinlashgan;

moslama tekislagichining balandligi ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi oldin kamaygan, keyin deyarli o'zgarmagan, tuproqning uvalanish darajasi oldin ortgan, keyin o'zgarmagan.

Tortishga qarshilik balandlik ortishi bilan ortgan, lekin uning ortish jadalligi balandlik ortishi bilan kamayib borgan;

moslama tekislagichi tuproq suradigan plastinasining harakat yo'nalishiga

nisbatan o'rnatilish burchagi ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi botiq parabola qonuniyati bo'yicha o'zgargan, ya'ni u oldin kamaygan, keyin ortgan, tuproqning uvalanish darajasi oldin ortgan keyin kamaygan, tortishga qarshilik oldin kamaygan, keyin ortgan;

ish tezligi ortishi bilan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi kamaygan, tuproqning uvalanish darajasi va tortishga qarshilik ortgan.

Moslama tekislagichining nazariy va bir omilli eksperimentlarda o'rganilgan parametrlarining talab darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan maqbul qiymatlari ko'p omilli eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulidan foydalanib aniqlandi.

Tadqiqotlarda moslama tekislagichining qamrash kengligi ( $X_1$ ), balandligi ( $X_2$ ), tekislagich tuproq suradigan plastinasining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi ( $X_3$ ) va agregatning harakat tezligi ( $X_4$ ) uning sifat va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida qabul qilindi hamda ularning sathi va o'zgarish oraliqlarining qiymatlari belgilandi.

Ko'p omilli eksperimentlar XARTLI-4 rejasi bo'yicha o'tkazildi. Bunda baholash mezonlari sifatida dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi ( $Y_1$ , cm), tuproqning uvalanish darajasi ( $Y_2$ , %), ya'ni o'lchami 25 mm dan kichik bo'lgan tuproq fraksiyalari miqdori hamda tekislagichning tortishga qarshiligi ( $Y_3$ , N) olindi.

Ko'p omilli tajribalarda olingan ma'lumotlarga "PLANEXP" dasturi bo'yicha ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi bo'yicha ( $Y_1$ , cm):

$$Y_1=1,175-0,250X_1-0,040X_2+0,027X_3-0,060X_4+0,445X_1^2-0,010X_1X_2+0,010X_1X_4+0,025X_2^2-0,015X_2X_3+0,013X_2X_4+0,068X_3^2+0,015X_3X_4+0,022X_4^2; \quad (12)$$

tuproqning uvalanish darajasi bo'yicha ( $Y_2$ , %):

$$Y_2=78,634+1,606X_1+1,170X_2+0,485X_3+1,998X_4-0,611X_1^2-0,875X_2^2+0,346X_2X_3-0,680X_2X_4-0,736X_3^2-0,518X_3X_4-0,623X_4^2; \quad (13)$$

tortishga qarshilik bo'yicha ( $Y_3$ , N):

$$Y_3=79,814+4,453X_1+4,748X_2+0,967X_3+4,548X_4-0,885X_1^2+0,475X_1X_2+0,337X_1X_3-0,475X_1X_4-1,182X_2^2-0,637X_2X_3+1,368X_3^2-1,388X_3X_4+1,468X_4^2. \quad (14)$$

Parametrlarning talab darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan qiymatlarini aniqlashda (12)-(14) regressiya tenglamalari Excel

dasturini “yechimni qidirish” (поиск решения) amali bo'yicha 6-8 km/h tezliklar uchun birgalikda yechildi. Bunda dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi  $\pm 2$  cm dan katta bo'lmasligi, tuproqning uvalanish darajasi, ya'ni  $\Phi_{<25}$  mezon 75-80 foiz oralig'ida bo'lishi hamda  $Y_3$  mezon minimal qiymatga ega bo'lishi shartlari qabul qilindi.

Olingan natijalar bo'yicha 6-8 km/h harakat tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlash uchun moslama tekislagichining qamrash kengligi 111,91-128,14 mm, balandligi 55,20-62,50 mm, uning tuproq suradigan plastinasining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi  $30^\circ$  bo'lishi lozim. Omillarning ushbu qiymatlarida dala yuzasidagi notekisliklarni balandliklarining o'rtacha kvadratik chetlanishi  $\pm 1,12-1,31$  cm ni, tuproqning uvalanish darajasi 75,73-79,04 foiz, tortishga qarshiligi 71,28-84,06 N ni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Keng qamrovli chizel-kultivatorga asoslangan parametrlarga ega bo'lgan moslamaning tajriba nusxasini tayyorlash va sinovlarini o'tkazish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida o'tkazilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalari bo'yicha dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivatorga dastlabki talablar va texnik topshiriqlar ishlab chiqildi. Ular asosida uning konstruksiyasi yaratildi hamda tajriba nusxasi tayyorlanib xo'jalik sinovlari o'tkazildi.

Sinovlarda asoslangan parametrlarga ega bo'lgan tekislagich va plankali g'altakmola bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivator belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning jiddiy kamchiliklari kuzatilmadi.

O'tkazilgan texnik-iqtisodiy hisoblar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivator qo'llanilganda yerlarni ekishga tayyorlash sifati ortadi va ekspluatatsion xarajatlar 33 foizga kamayadi. Yillik iqtisodiy samara 72908549 UZS ni tashkil etadi.

## XULOSA

“Keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan moslama ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Yerlarga ekish oldidan ishlov berish mashinalarida dala yuzasini tekislaydigan va unda mayin tuproq qatlamini hosil qiladigan ish organlari va ular bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning tahlili keng qamrovli chizel-kultivatorda qo'llash uchun tuproq suradigan plastinalardan tashkil topgan tekislagichlar va plankali g'altakmolalardan iborat moslama ishlab chiqish imkonini berdi.

2. Keng qamrovli chizel-kultivatorga dala yuzasidagi notekisliklarni tekislash va unda mayin tuproq qatlamini hosil qilish uchun ishlab chiqilgan moslama yuzasida 9,5-10,7 cm balandlikdagi notekisliklar bo'lgan maydonda ishlaydi hamda tarkibida 2,6-4,7 foiz o'lchami 100 mm dan katta, 10,6-12,2 foiz o'lchami 100-50 mm va 83,1-86,8 foiz o'lchami 50 mm gacha bo'lgan tuproq fraktsiyalari

bilan o'zaro ta'sirlashadi.

3. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, dala yuzasini to'liq tekislanishi va unda mayin tuproq qatlamini hosil qilish uchun keng qamrovli chizel-kultivatorga ishlab chiqilgan moslama tekislagichi tuproq suradigan plastinalari harakat yo'nalishiga nisbatan  $30^\circ$  burchak ostida o'rnatilishi, uning qamrash kengligi 9-16 cm oralig'ida va balandligi kamida 5,5 cm, plankali g'altakmolasi diametri kamida 36 cm, unga o'rnatiladigan plankalar soni 12 dona va beriladigan tik yuklanish 1,04-1,06 kN/m oralig'ida, moslama tekislagichi va g'altakmolasi orasidagi bo'ylama masofa kamida 32 cm bo'lishi lozim.

4. O'tkazilgan hisoblar bo'yicha 1,7-2,2 m/s harakat tezligida ishlab chiqilgan moslamani tortishga solishtirma qarshiligi 1,88-2,10 kN/m ni tashkil etadi.

5. Tajribaviy tadqiqotlarning natijalari bo'yicha 6-8 km/h harakat tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlash uchun moslama tekislagichining qamrash kengligi 112-128 mm, balandligi 55-62 mm, uning tuproq suradigan plastinasining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi  $30^\circ$  bo'lishi lozim.

6. Ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan moslama bilan jihozlangan keng qamrovli chizel-kultivator qo'llanilganda yerlarni ekishga tayyorlashga sarflanadigan umumiy xarajatlar 33 foizga, mehnat sarfi esa 77 foizga kamayadi. Buni hisobiga bitta mashinaga yillik iqtisodiy samara 72908549 UZS ni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/13.05.2020.Т.112.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ  
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

---

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ МЕХАНИЗАЦИИ  
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**РАЖАБОВ БОБИР БОЗОРОВИЧ**

**РАЗРАБОТКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ  
ПРИСПОСОБЛЕНИЯ К ШИРОКОЗАХВАТНОМУ ЧИЗЕЛЬ-  
КУЛЬТИВАТОРУ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ ПОЛЯ И  
ОБРАЗОВАНИЯ НА НЕЙ МЕЛКОКОМКОВАТОГО СЛОЯ ПОЧВЫ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация  
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире ведущее место занимает разработка и использование энерго-ресурсосберегающих машин с высокой производительностью и качеством работы для обработки полей перед посевом. “Если учесть, что на сегодняшний день в мире площадь полей, обрабатываемых перед севом, составляет 1,8 млрд гектаров”<sup>1</sup>, то, желательно, чтобы машины, используемые при обработке полей перед посевом имели высокое качество работы и производительность, были энерго-ресурсосберегающими. Учитывая это, совершенствование машин, используемых при обработке полей перед посевом в направлении повышения качества работы и производительности, а также обеспечения энерго-ресурсосбережения, в том числе разработка и применение машин, совмещающих технологические процессы предпосевной обработки почвы, считается важной задачей.

В мире проводятся научно-исследовательские работы по созданию энерго-ресурсосберегающих технологий подготовки полей к посеву семян сельскохозяйственных культур и новых образцов машин для их осуществления, разработке научно-технических основ совершенствования существующих, а также снижению энергоемкости и обеспечению ресурсосбережения в процессе их работы. В частности актуальным вопросом считается разработка почвообрабатывающих машин, выполняющих за один проход все агротехнические мероприятия по подготовке земель к севу, и проведение научно-исследовательских работ по обоснованию параметров их рабочих органов, обеспечивающих требуемое качество работы на уровне требований при минимальных затратах энергии.

В сельскохозяйственном производстве нашей республики, наряду с реализацией широкомасштабных мер по снижению затрат труда и энергии, обеспечением ресурсосбережения, выращиванию сельскохозяйственных культур на основе современных технологий и разработке высокоэффективных сельскохозяйственных машин и технических средств особое внимание уделяется производству машин, обеспечивающих качественное и эффективное выполнение нескольких технологических процессов за один проход. В Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы намечены задачи и частности, «...внедрение механизмов снижения государственного участия и повышения инвестиционной привлекательности в сфере, предусматривающей увеличение потока частного инвестиционного капитала для поддержки модернизации, диверсификации и устойчивого роста сельского хозяйства и пищевой отрасли, рационального использования земельных и водных ресурсов, повышения производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшения качества продукции»<sup>2</sup>. При выполнении этих задач, в том числе при подготовке полей

---

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/3/i1688r/i1688r03.pdf>.

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП 5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы».

к посеву, одним из актуальных вопросов является проведение целевых научных исследований по разработке приспособления к широкозахватному чизель-культиватору для выравнивания поверхности поля и образования мелкокомковатого слоя на ней, обоснованию его параметров, снижению энергопотребления, а также обеспечению ресурсосбережения в процессе взаимодействия его с почвой.

